

Date: 5th July-2026

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Uzoqova Shoxista Aktam qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish metodikasi yoritilgan. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida mustaqil tafakkurni uyg'otishda an'anaviy yodlash usullaridan voz kechib, muammoli ta'lim, interaktiv o'yinlar va kreativ topshiriqlardan foydalanishning afzalliklari asoslab berilgan. Maqolada ona tili darslarini tashkil etishda so'z yasalishi, matn ustida ishlash va nutq o'stirish jarayonlarini bolaning mustaqil xulosalar chiqarishiga yo'naltirish tizimi amaliy misollar yordamida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ona tili darslari, mustaqil fikrlash, interaktiv metodlar, nutq o'stirish, muammoli ta'lim, kichik yoshdagi o'quvchilar, kreativ yondashuv.

Abstract: This article describes the methodology for forming and developing students' independent thinking skills in primary school native language lessons. The advantages of using problem-based learning, interactive games, and creative tasks in fostering independent thinking in young schoolchildren are substantiated by abandoning traditional memorization methods. The article analyzes the system of word formation, text work, and speech development processes in organizing native language lessons to guide the child's independent conclusions using practical examples.

Keywords: primary education, native language lessons, independent thinking, interactive methods, speech development, problem-based learning, younger students, creative approach.

Аннотация: В данной статье освещается методика формирования и развития способности самостоятельного мышления учащихся на уроках родного языка в начальных классах. Обоснованы преимущества использования проблемного обучения, интерактивных игр и креативных заданий в развитии самостоятельного мышления у младших школьников, отказавшись от традиционных методов запоминания. В статье на практических примерах анализируется система направления процессов словообразования, работы над текстом и развития речи на самостоятельные выводы ребенка при организации уроков родного языка.

Ключевые слова: начальное образование, уроки родного языка, самостоятельное мышление, интерактивные методы, развитие речи, проблемное обучение, младшие школьники, креативный подход.

Yoshlarning bilim olishi, ta'lim-tarbiyasi va kasbiy tayyorgarligi masalalari O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurish hamda fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli davlatimiz rahbari tomonidan voyaga yetayotgan avlodga zamonaviy ta'lim va tarbiya berish to'g'risida bir qator keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Bularga yorqin misol sifatida ixtisoslashgan



Date: 5th July-2026



maktablarning ochilishi, xususiyl sektorga ta'lim yo'nalishida bir qator katta imkoniyatlar berilishi kabilarni keltirishimiz mumkin. Uzluksiz ta'lim tizimining poydevori bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki nutqi bilan bog'liq holda ularning yozma nutqini rivojlantirish ham o'z navbatida dolzarb vazifadir. Shu sababli o'quv yilining ilk kunlaridan boshlab pedagoglar bolalarni tabiatni kuzatish va shu asosda maxsus tabiat taqvimini yuritishga o'rgatadilar. Bu tizimli kuzatishlarning o'zi ham savollarga javob beruvchi hikoya-og'zaki insho uchun eng qulay mavzu bo'lib xizmat qilishi mumkin. Dars jarayonida bolalarga: "Bugun ob-havo qanday? Osmon qanday ko'rinishda? Havo bulut bo'lganda osmon qanday ko'rinishda bo'ladi? Nega shunday bo'lishini bilasizmi? Quyoshning qizdirishi nimalarga va nimasi bilan foydali, deb o'ylaysiz? Oy nurining sabzavot va mevalarga foydali jihati bormi?" kabi savollar bilan murojaat qilinadi. Ushbu muammoli savollar orqali boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarning kreativ fikrlash holati bilan bir qatorda yozma nutqdagi imlo qoidalariga hikoya-og'zaki nutqda qay darajada rioya qilishlari haqida aniq bilib olishadi. Og'zaki va yozma insholar ularga o'z fikrlarini izchil va aniq ifoda etish, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Ona tili va adabiyot darslarida interaktiv metodlarni keng joriy etish zamon talabi bo'lib, o'quvchining faolligini va fanga qiziqishini oshirish, mustaqil izlanishga undash, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga keng imkon beradi. Ushbu darslarda interaktiv metodlarni qo'llash orqali o'quvchi nafaqat o'rgatadigan axborotni shunchaki eslab qoladi, balki uni real hayotda tatbiq eta oladi, ijodiy yondashishni hamda tanqidiy fikrlashni o'zlashtiradi [1]. Interaktiv metodlar muhitida har bir o'quvchi o'z fikrini erkin bildirib, yangi bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, olgan bilimlarini amalda qo'llay bilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Shu bois interaktiv metodlar o'quvchining darsdagi ishtirokini yuqori darajaga olib chiqadi, bilim olish jarayonini jonlantiradi, ilgari passiv bo'lgan o'quvchini ham faol ishtirokchi darajasiga ko'taradi. Bugun ta'lim sohasida jadallik bilan joriy etilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida, aynan interaktiv metodlarning pedagogik jarayondagi o'rni beqiyosdir. Ular o'quvchilarning ijtimoiy, tafakkuriy va nutqiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interaktiv metodlar o'zida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro faol hamkorligini, dars jarayonida o'quvchilarning mustaqil ishlashlarini, erkin fikr bildirishi va ijodiy yondashuvini talab etadi. Ona tili va adabiyot darslarida ham bu metodlardan foydalanish orqali o'quvchining bilimini faollik, mustaqillik, tanqidiy va mantiqiy fikrlash, axborotni tahlil qilish, xulosalash, nutq madaniyatini rivojlantirish jarayonida keng imkoniyatlar paydo bo'ladi [2]. Mustaqil fikrlash – bu o'quvchilarning o'z fikrini erkin bayon qila olishi, asosli dalillar keltira bilishi va turli vaziyatlarga tanqidiy yondasha olishidir. U boshlang'ich sinfda shakllantirilsa, kelajakda mantiqiy tafakkur, muammolarni hal qilish va ijodkorlik rivojlanishiga yordam beradi. Og'zaki inshoning ahamiyati shundaki, o'quvchilar og'zaki nutq orqali fikrlarini aniqlashtirishni o'rganadilar, muloqot qobiliyatlari rivojlanadi, so'z boyligi ortadi, o'z fikrini asoslab gapirish va mantiqiy dalillar keltirish qobiliyati shakllanadi. Yozma inshoning amaliy ahamiyati esa fikrlarni izchil va mantiqiy tartibda bayon qilish ko'nikmasi shakllanishida, o'quvchilar o'z mustaqil qarashlarini ifoda qilishga o'rganishlarida hamda tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuv rivojlanishida yaqqol

Date: 5th July-2026



ko‘rinadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida og‘zaki va yozma nutq bilan birgalikda ishlar olib borilishi zarur. Sababi, og‘zaki nutq muvaffaqiyatli yozish uchun muhim pog‘ona bo‘lib xizmat qiladi. Ilmiy manbalarda ta‘kidlanishicha, nutq tafakkurning o‘tmishdoshi bo‘lib, o‘quvchilarga o‘z g‘oyalarini yozma shaklga keltirishdan oldin ularni tuzish va tartibga solish imkonini beradi. Sinfdagi interaktiv munozaralar va og‘zaki muloqotlar o‘quvchilarga til namunalarini takrorlashga va aniq, tartibli yozish uchun zarur bo‘lgan tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, kuchli og‘zaki ko‘nikmalar keyinchalik savodxonlikda muvaffaqiyatni ta‘minlaydi, chunki gapirish o‘quvchilarga o‘z g‘oyalarini aniqlashtirish va takomillashtirishga ko‘maklashadi. Yozish jarayonida mazmun yaratishning aqliy yukini kamaytirish orqali og‘zaki mashq yozish vazifalarini, ayniqsa, qiyinchilikka duch kelayotgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun osonroq va qulayroq formatda bajarish imkonini taqdim etadi [3]. Darslarni interaktiv tashkil etish muhitida o‘quvchilar darsga ehtiros bilan kirishishadi; ularning bilishga bo‘lgan qiziqishlari, yangi bilimlarni o‘zlashtirishga ishtiyoqi oshadi, o‘zaro hamkorlikda ishlashga odatlanadi. O‘qituvchi esa darsda ko‘proq yo‘naltiruvchi, bilimlarni boshqaruvchi, munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi maqomida bo‘ladi. Bunday jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik mustahkamlanadi, o‘qituvchi o‘z faoliyatini o‘quvchilarning real ehtiyoj va imkoniyatlariga moslashtiradi. Asosiy e‘tibor bilimlarni tayyor holda berishdan, o‘quvchining o‘zi izlanishiga, mustaqil xulosa chiqarishiga qaratiladi. Hozirgi kunda darslarni innovatsion va interaktiv metodlar asosida tashkil qilish orqali o‘quvchilarni zamonaviy hayotga ko‘nikdirish, ular bilan axborot va texnologiyalar asriga mos madaniyat va tafakkur shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Interaktiv metodlardan foydalanib olib borilayotgan darslar o‘quvchilarning nutq madaniyatini, tanqidiy va ijodiy fikrlashini, tafakkurini, axborotlarni tahlil qilish ko‘nikma va malakalarini rivojlantiradi. Shu sababli, ona tili darslarini interaktiv tashkil etishning dolzarbligi kundan-kunga oshib bormoqda. Interaktiv metodlarni tadbiq qilish natijasida o‘quvchilarning ushbu fanlarga qiziqishi, ulardagi bilim sifatining oshishi, ijtimoiy moslashuvchanligi va individ sifatida shakllanishi uchun keng imkoniyatlar ochiladi [4]. Ona tili fanida interaktiv metodlar bilan o‘qitish natijasida o‘quvchi avval olingan nazariy bilimlarini amalda mustahkamlaydi. Ma‘ruzalarni eshitish yoki kitob o‘qish ta‘limda anchagina passiv o‘rinda turadi. Ammo interaktiv metod muhitida o‘quvchi bilimi ko‘proq mustaqil izlanishda, muhokama va bahsda, savol-javob va fikr almashishda, darsdagi faol ishtirok va o‘z o‘rnini namoyon etishda mustahkamlanadi. O‘qituvchi tomonidan dars jarayoniga samarali savollar, ijobiy kayfiyat va muammolar, tanqidiy yondashuvlar, qiyin va noodatiy topshiriqlar kiritilganida, o‘quvchi tafakkurini yorituvchi kutilgan natija olinadi. Bu esa, o‘quvchining mustaqil va ijodiy fikrini rivojlantiradi, nutqini boyitadi, o‘zining orzusi, rejalari ustida ishlashga safarbar etadi [5]. Ona tili darslarida interaktiv metodlarning o‘rni shunisi bilan ham muhimki, bunday darslar davomida o‘quvchining yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida boshqalardan o‘rganishi, boshqalarning fikrini tinglash, o‘z nuqtayi nazaridan dalillar keltirib, umumiy xulosani chiqarishni o‘rganishi mumkin. Bu esa bosqichma-

Date: 5th July-2026



bosqich ravishda jamiyatda muvaffaqiyatga erishish uchun asos bo'ladi. Darhaqiqat, interfaol darslar ona tili faniga bo'lgan ishtiyoqni oshiradi, o'z fikrini erkin yetkazishda, sababchi va oqibatini ajratishda, iboralarning to'g'ri ishlatilishida, matnlar bilan ishlashda yetakchi harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. O'qituvchining asosiy vazifalaridan biri har bir o'quvchini to'liq jalb etish, undagi yashirin qobiliyat va salohiyatni ochish, unga o'z fikrini erkin ifoda qilishga ko'maklashish, ona tilining boyligini his etishga ilhomlantirishdan iborat bo'lishi kerak. Insho boshlang'ich sinflarda kichik og'zaki axborot yoki oddiy hikoyadan boshlanib, sinflar yuqori bo'lgan sari o'quvchini o'z fikrini ifodalashga o'rgatadigan, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qiladigan, aqlini peshlab dunyoqarashini kengaytiradigan ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ish turiga aylanib boradi. Insho bola shaxsini shakllantirishda g'oyat samarali vosita bo'lib, hayajon uyg'otadi, aqliy mustaqillikka, fikrlashga, ko'rgan-kechirganlari va o'zlashtirganlarini baholashga, voqea-hodisalar o'rtasidagi sabab-natija bog'lanishini topishga, ularni qiyoslashga, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Insho o'quvchini o'z fikrini tartibga solishga yo'naltiradi. Rasmlar va tabiatni kuzatish asosida yoziladigan insholar maktablarda tez-tez o'tkaziladi, chunki rasmlar bolalar nutqiy ijodini, tasavvurini boyitishga xizmat qiladi. Darsda og'zaki nutqdan samarali foydalanish o'quvchilarning yozma nutqini mustahkamlaydigan turli xil yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Interaktiv metodlar yordamida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar do'stona, hurmatli va hamkorlik muhitida tashkil etiladi. O'qituvchi – ma'lumot manbai emas, balki yo'lboshchi, yetakchi va maslahatchi bo'lib harakat qiladi. O'quvchi passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi, izlanuvchi va anglovchiga aylanadi. Bunday sharoitda bilimlar faqat o'qituvchidan o'quvchiga ko'chirilmaydi, balki o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining o'zaro ta'siri natijasida puxta o'zlashtiriladi. Ona tili darslarida interaktiv metodlarni tadbqiq qilish darslarning namunaliligi, o'ziga xosligini ta'minlaydi, har bir o'quvchi uchun shaxsiy rivojlanish muhitini yaratadi, tahsil sifatini sezilarli darajada oshiradi. Ular yangi bilimlarni chuqurroq tahlil qilish, mustaqil xulosalar chiqarish, ulardan amaliy hayotda foydalanish malakasini shakllantirishga sabab bo'ladi. Darslarni interaktiv tashkil etish o'quvchilarning mantiqiy mushohada, nutq madaniyatini mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalardan to'g'ri foydalana olish, kommunikativ qobiliyat va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Ona tili darslarida interaktiv metodlardan foydalanishga doir pedagogik tajribalar, ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interaktiv metodlar orqali tashkil etilgan darslarda o'quvchining darsdagi ishtiroki, fanlarga qiziqishi, mustaqil bilim olish ko'nikmasi, nutq madaniyati sezilarli darajada oshadi. Interaktiv metodlarni qo'llash natijasida o'quvchilar mustaqil fikrlash, bahslashish, tahlil qilish, umumlashtirish, asosli xulosa chiqarish, savollarga tez va aniq javob bera olish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Aynan shunday interaktiv darslar natijasida dars jarayoni jonlilik kasb etadi, o'qituvchi ham, o'quvchilar ham doimiy izlanish, qiziqish va ijodiy faollikni saqlab qolishadi [6]. Ona tili darslarida interaktiv metodlardan foydalanish uzluksiz ta'lim tizimining poydevori bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini erkin fikrlashga o'rgatishda eng muhim jihatdir. Bu jarayonda bolalarda mustaqil fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish, nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish, o'z fikrini aniq va ravon ifoda qilish, jamoaviy faoliyatda qatnashish kabi muhim fazilatlar

Date: 5th July-2026



shakllanadi. Interaktiv metodlar orqali ona tili darslari jonlanadi, har bir o'quvchi o'zining ichki imkoniyatlarini, tafakkur salohiyatini, bilimga bo'lgan intilishini to'liq namoyon etadi. Natijada, zamonaviy jamiyatda hayotga, bilimga, tafakkurga sadoqatli, yetuk va bilimli yoshlar tarbiyalanadi. Ona tili darslarida interaktiv metodlar asosida olib borilayotgan ta'lim – mantiqiy fikrlay oladigan kelajak avlodimizga mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurahmonova, N. (2018). "Ona tili darslarida interaktiv usullardan foydalanishning zamonaviy talablari". O'qituvchilar uchun, 2(4), 21-26.
2. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldasheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. - Toshkent: "Nosir" nashriyoti, 2009. - 351 b.
3. Khalikov A.A., Egamqulova I.S. (2023). "Development of children's creative thinking based on an integrative approach in primary education". Zenodo digital repository.
4. Roziqov O., Mahmudov M. va boshqalar. Ona tili didaktikasi. - Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005.
5. Bobomurodova, S. (2021). "Interaktiv metodlar yordamida o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish". O'zbekiston maktabi, 7(6), 48-54.
6. Islomova, L. (2022). "Adabiyot darslarida interaktiv metodlardan samarali foydalanish yo'llari". Yangi O'zbekiston, 1(1), 73-79.